

BOLALARNING PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIDA OILANING O‘RNI

Eshimova Maftuna Boybo‘ri qizi
Surxondaryo viloyati Sho‘rchi tumani
46-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarning psixologik rivojlanishida oilaning tutgan o‘rni, ota-ona munosabatlari, tarbiya usullari va oilaviy muhitning bola shaxsiga ta’siri yoritilgan. Oiladagi ijobiy va salbiy omillar bolaning hissiy, ijtimoiy va aqliy rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: oila, psixologik rivojlanish, bola tarbiyasi, ota-ona, ijtimoiy muhit, hissiy rivojlanish, shaxs shakllanishi, mehr-oqibat, tarbiya usullari, ijobiy muhit.

KIRISH

Oila bu — jamiyatning eng kichik, lekin eng muhim ijtimoiy tuzilmasi bo‘lib, unda odamlar qarindoshlik, mehr-oqibat, mas’uliyat va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash asosida birga yashaydi.

Oila inson hayotining birinchi tarbiya maskani hisoblanadi. Bola aynan oilada dastlabki hayotiy tajribani oladi, muomala qilishni, yaxshi va yomonni farqlashni, hurmat va mas’uliyatni o‘rganadi.

Shuningdek, oila — bu faqat birga yashash emas, balki bir-birining hissiy ehtiyojlarini tushunish, qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish tizimidir. Oilada sog‘lom muhit bo‘lsa, bola ham psixologik jihatdan barqaror, ishonchli va ijtimoiy faol bo‘lib o‘sadi.

Oddiy qilib aytganda, oila — bu insonning tayanchi, tarbiya manbai va hayotdagi eng yaqin qo‘llab-quvvatlovchi muhitdir.

Bola shaxsining shakllanishida eng muhim omillardan biri bu oiladir. Oila bola uchun birinchi ijtimoiy muhit bo‘lib, u yerda u hayotga oid dastlabki tushunchalarni, muomala madaniyatini va hissiy munosabatlarni o‘rganadi. Ota-ona bilan bo‘lgan munosabatlar bolaning kelajakdagi xulqi, xarakteri va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta’sir qiladi.

Oilada mehr va e’tibor muhitining mavjudligi bola psixologiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Mehr ko‘rgan bola o‘zini xavfsiz his qiladi, o‘ziga ishonchi ortadi va atrofdagilar bilan erkin muloqot qila oladi. Aksincha, e’tiborsizlik yoki doimiy nizoli muhit bolaning hissiy rivojlanishiga salbiy ta’sir qilib, unda qo‘rquv, xavotir va agressiya kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ota-onaning tarbiya uslubi ham juda muhimdir. Qattiqqo‘llik yoki ortiqcha erkinlik bola xulqida muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Eng to‘g‘ri yondashuv – muvozanatli, ya’ni talab va qo‘llab-quvvatlash birga olib boriladigan tarbiya usulidir.

Bola oilada kuzatish orqali ham ko'p narsani o'rganadi. Ota-ona o'rtasidagi munosabatlar, muammolarni hal qilish usullari, muloqot madaniyati bolaning kelajakdagi ijtimoiy xulqiga model bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, oiladagi ijobiy rag'bat, bolani eshitish va uning fikrini hurmat qilish uning shaxs sifatida shakllanishiga yordam beradi. Bola o'zini kerakli va qadrlangan his qilsa, u jamiyatda ham o'z o'rnini topishga intiladi.

Sharq mutafakkirlaridan Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiylar oilada bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda uning ta'lim va tarbiya olishi muhimligini o'z asarlarida ko'rsatib berish orqali ijtimoiy tarbiyaning tamal toshini qo'yganlar.

Keyinchalik ma'rifatparvar pedagog olimlar – Zavqiy, Avaz O'tar, Dilshodi

Barno, Furqatlarning, jadid pedagog olimlari – Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzodalar ijtimoiy tarbiyaning jamiyatda muhim ahamiyatga egaligi, o'sib kelayotgan avlodni jamiyat bilan integratsiyalashda ijtimoiy hayotga tayyorlashning muhimligini o'z qarashlari orqali ochib berishgan.

Zamonaviy sharoitda oilada bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash masalalari faylasuf, psixolog va pedagog olimlar tomonidan oila muammosining turli jihatlarini tadqiq etish jarayonida ochib berilgan.

Pedagog olimlardan A.Q.Munavarov o'zining "Oilaviy tarbiya samaradorligining pedagogik shart-sharoitlari" deb nomlangan tadqiqotida oilaning ijtimoiy maqomi va ijtimoiy tarbiyaning funksiyalarini tadqiq etgan.

Pedagogika fanlari doktori, professor O.Musurmonova oilada ma'naviy madaniyatni shakllantirish orqali bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashga e'tibor qaratgan. Olima oila tarbiyasi haqida to'xtalganda, uning keng qamrovli ekanligini, jamiyat hayotining barcha jihatlarini o'ziga qamrab olishini shunday bayon etadi: "Oila tarbiyasida hikmat ko'p. Yangi o'tqazilgan niholning to'g'ri yoxud egri o'sishi bog'bon mehnati va mahoratiga bog'liqdir. Egri o'sayotgan niholning qaddini rostlab qo'yilmasa, u noto'g'ri rivojlanadi. Yangi tug'ilgan go'dak tarbiyasi bilan yosh nihol holati o'rtasida qandaydir tabiiy o'xshashlik mavjud. Bundan ko'rinib turibdiki, mehnat tarbiyasi, axloq-odob normalari, Vatan tuyg'usi va vatanparvarlik tarbiyasi, ma'naviy-estetik tarbiya, jismoniy tarbiya, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, milliy g'urur va iftixor tarbiyasi, ijtimoiy tarbiya va shu kabilar oiladan boshlanadi".

Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash orqali ijtimoiy hayotga tayyorlash masalasi M. Inomova, Sh.Atadjanova, Sh.Shodmonovalar tomonidan turli yosh davrlari bilan bog'liqlikda tadqiq etilgan. Oilada milliy tarbiya asosida bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash muammosi M. Quronov, A.Muxsiyevlar tomonidan o'rganilgan.

P.U.Berdanova qoraqalpoq oilalarida o'smirlarning ekologik madaniyatini

shakllantirish F.F.Xidirova oilada qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash orqali yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash masalasini o'z ishlarida turli jihatlarini yoritganlar.

Oila inson uchun mehnat qobiliyatini tiklash va dam olish joyi. SHuningdek, oila muhim tarbiya o'chog'i hamdir. Oilada bolalar tarbiyasida ota-bobolar, momolardan qolgan, ming yillar mobaynida hayot sinovlaridan o'tgan yaxshi udum, odatlar mavjud. Pedagogika fanlari doktori, professor M. Inomova oilaning quyidagi jihatlarini alohida ajratib ko'rsatgan:

- birinchidan, oila o'ziga xos va takrorlanmas ta'sirga ega;
- ikkinchidan, oila bola uchun o'ziga xos «ko'zgu» bo'lib, ota-onaning shaxsiy namunasi, ibrati bola tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi;
- uchinchidan, oila o'ziga xos hissiyotlar olamidan iborat bo'lib, unda ijobiy va ba'zan salbiy his-tuyg'ular jamuljam bo'ladi;
- to'rtinchidan, oila sharoitida bolalarda o'zgalarga nisbatan hamdardlik tuyg'ulari ham tarbiyalanadi;
- beshinchidan, oiladagi maishiy turmushda bolaning ishtirok etishi ham axloqiy tarbiyaning muhim omili sanaladi;
- oltinchidan, oila – er-xotinlik, ota-onalik vazifalarini aks ettiradi. Ota-onaning bir-biriga bo'lgan muhabbati bolaga ta'sir ko'rsatadigan asosiy tarbiyaviy omillardan biriga aylanishi mumkin

Demak, oila – tarbiyaviy jamoa va hech kim hech qanday holatda oilaning vazifasini bajara olmaydi. Oila hayoti ko'p tomonlamali munosabatlar bilan tavsiflanadi: ijtimoiy-biologik, xo'jalik-iqtisodiy, axloqiy, psixologik. Oila rivojining har bir bosqichi bir funksiyasining tugashi, boshqasining paydo bo'lishi, uning a'zolarining ijtimoiy faoliyatining o'sib borish ko'lami va tavsifi bilan bog'liq. V.A. Slastenin, I.F. Isaev, E.N. Isaevlarning fikricha, oila jamiyat va shaxsga munosabati bo'yicha muhim ijtimoiy ahamiyatga ega funksiyalarni bajaradi.

Jamiyatga munosabati bo'yicha oilaning vazifalari quyidagilarda aks etadi:

- aholining tabiiy ko'payishi. Avlodlarning almashinuvi uchun dav-lat tomonidan belgilangan doirada bolalar soni muvofiq bo'lishi zarur.
- tarbiyaviy vazifasi – bilim, ko'nikma va malakalar, me'yorlar, qadriyatlar, ma'naviy boyliklarni uzatish.
- ishlab chiqaruvchi-xo'jalik. Sotsiologlarning ko'rsatishicha, oila-ning oila ishlaridan to'liq ajralishlari uchun qo'shimcha 40-45 mln odam talab etiladi. □ bo'sh vaqtni tashkil etish.

Shaxsga munosabati bo'yicha oilaning vazifalari quyidagicha:

- er-xotinlik vazifasi. Er-xotinlar – eng yaqin kishilar, ular o'zaro birbirini to'ldiradi, bir-biridan ruhiy madad oladi.
- ota-onalik vazifasi. Oila qariganda ota-onalarning hayotini bezash uchun zarur bo'lgan ishtioqni ta'minlaydi.

➤ turmushni yo‘lga qo‘yish

Bolalar tarbiyasini yo‘lga qo‘yishda ota-onalar bilan ijtimoiy-pedagog hamkorlikka erishishda ota-onalarning nafaqat pedagogik-psixologik bilimlarga egaliklari, balki ularning ruhan tetik va ijtimoiy jihatdan faol ekanliklariga ham e‘tibor qaratish lozim. Bu o‘rinda talabalar psixolog va shifokorlar (F.Akromova va A.Usmonxo‘jaevlar)ning tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan quyidagi yo‘riqnoma pedagogik jihatdan foydalidir:

- barcha kasalliklarning asosi asabdan ekanligi ma‘lum ekan, oilaviy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va kasbiy faoliyatni tashkil etishda asabiylashmaslikka harakat qilish, o‘zaro ijtimoiy munosabatlarini tashkil etish jarayonida boshqa sub’ektlarning qadr-qimmatini saqlashga intilish;

- atrofdagilar bilan suhbatlashish va har qanday yumush bilan band bo‘lishdan qat’iy nazar samimiy bo‘lishga intilish;

- bekorchilik insonda turli noxush o‘y-fikrlarni keltirib chiqishini yodda tutgan holda hamisha biror bir foydali yumush bilan band bo‘lish;

- oila a‘zolari yoki yaqin kishilarning muammolari, shuningdek, ularni qiziqtiruvchi mavzularga nisbatan befarq munosabatda bo‘lmaslik, ularni doimo qo‘llab-quvvatlash, ularga yordam ko‘rsatish va yaxshiliklar qilishga intilish;

- hayotni va atrofdagi kishilarga mehr qo‘yish, zero, mehr-muhabbat insonga ruhiy kuch bag‘ishlaydi, jismoniy va ruhiy imkoniyatlarni oshiradi;

- doimo harakatchan bo‘lish;

- imkon qadar kamtar bo‘lish, zero, manmanlik umr zavolidir

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, oila bolaning psixologik rivojlanishida eng asosiy va birlamchi maktab hisoblanadi. Oilaviy muhit qanchalik sog‘lom va barqaror bo‘lsa, bola shunchalik ruhiy jihatdan kuchli, ijtimoiy jihatdan moslashuvchan va muvaffaqiyatli shaxs bo‘lib yetishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Каримова О. Оила ҳуқуқи асослари. – Т.: 2003.
2. Каримова В. Оилавий ҳаёт психологияси. – Т.: 2006.
3. Лихачев Б.Т. Педагогика – М.: ЮРАЙТ, 2003.
4. Мунавваров А. К. Оилавий тарбия самарадорлигининг педагогик шартшароитлари. Т.: Фан. 1989.
5. Мунавваров А. Қ. Оила педагогикаси – Т.: Ўқитувчи, 1994
6. Мусурмонова О. Оила маънавияти – миллий ғурур. – Т.: Ўқитувчи, 1999.
7. Ziyo.net